IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

JISMONIY SHAXSLARNING XALQARO JINOYATLARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKKA TORTISH ASOSLARI

Masharipova Naziraxon Rasulbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
E-mail: masharipovanazira38@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24484978

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish asoslari xalqaro jinoyat huquqi manbalari, Nyurnberg va Tokio tribunallaridan Xalqaro jinoyat sudigacha bo‘lgan tarixiy rivojlanish hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari misolida tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — individual jinoiy javobgarlik prinsipining mazmuni, huquqiy asoslari va javobgarlik shakllarini aniqlash, milliy qonunchilik bilan xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib, ularni uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik usullar va xalqaro sud ishlarini o‘rganish usulidan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: xalqaro jinoyat huquqi, individual jinoiy javobgarlik, Rim Statuti, Xalqaro jinoyat sudi, Nyurnberg prinsiplari, qo‘mondonlik javobgarligi, birgalikdagi jinoiy korxona, komplementarlik, Jinoyat kodeksi

Usullar

Maqolada huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik usullar hamda xalqaro sud ishlarini o‘rganish usulidan foydalanildi. Tahlil obyekti — xalqaro jinoyat huquqi manbalari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli normalari va ilmiy adabiyotlar, real amaliyotni o‘rganishda Nyurnberg tribunali, ICTY va Xalqaro jinoyat sudining ishlari tahlil qilindi.

Kirish

Hozirgi kunda xalqaro jinoyat huquqi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan birga, butun insoniyat manfaatlariga tajovuz qiluvchi eng og‘ir qilmishlarga qarshi kurashishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va tajovuz jinoyati xalqaro hamjamiyatning asosiy qadriyatlariga zarar yetkazadi, shu sababli ular faqat bitta davlatning ichki ishi hisoblanmaydi, Rim Statutida ham aynan shu to‘rt turdagi jinoyat Sud yurisdiksiyasiga kiritilgan.[1] Jinoyatchilar ko‘pincha davlat hokimiyatiga yaqin turgani uchun milliy sudlar ularni har doim ham javobgarlikka tortishga qodir bo‘lmaydi, bu esa xalqaro mexanizmlarni yaratishni taqozo etdi.

[1] Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti (1998-yil 17-iyul), 5-modda https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/Publications/Rome-Statute.pdf

Biroq jinoyatni aniq shaxslar sodir etishi tan olingach, xalqaro jinoyat sodir etgan shaxs o‘z mansabi yoki fuqaroligiga qaramasdan javobgarlikdan qutula olmasligini bildiruvchi individual jinoiy javobgarlik prinsipi shakllandi. Uni amalda qo‘llash yurisdiksiya doirasining cheklanganligi, davlatlar hamkorligiga bog‘liqlik va milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmasligi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Maqolaning maqsadi — javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari va shakllarini xalqaro hamda milliy huquq doirasida qiyosiy tahlil qilish, O‘zbekiston qonunchiligidagi bo‘shliqlarni aniqlash va takliflar ishlab chiqishdir.

Natijalar: jismoniy shaxslarning xalqaro jinoiy javobgarligining huquqiy asoslari

Tushuncha va manbalar. Klassik xalqaro huquqda javobgarlik davlatga yuklangan. Biroq XX asrda sodir etilgan jinoyatlar ularni aynan konkret shaxslar sodir etishini va faqat davlatni javobgarlikka tortish bilan adolatni ta’minlab bo‘lmasligini ko‘rsatdi; shu sababli jismoniy shaxslarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro jinoiy javobgarligi prinsipi vujudga keldi. BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasiga muvofiq xalqaro huquq manbalari — konvensiyalar, odatlar va umumiy prinsiplar, xalqaro jinoyat huquqining manbalari esa davlatlar tan olgan jinoiy-huquqiy normalarni qayd etish shakllaridir.[2] D.Sh. Umarxonova va X.R. Ochilov xalqaro jinoyat huquqi prinsiplarini uch turga bo‘lgan: xalqaro huquqning umumtan olingan prinsiplari, Xalqaro jinoyat sudi Statutida aks etgan prinsiplar, hamkorlikka oid shartnomalar va milliy qonunchilikdagi rahbariy prinsiplar. Individual jinoiy javobgarlik prinsipi asosan ikkinchi guruhga kiradi va xalqaro odat normasi sifatida ham tan olingan. U davlat javobgarligini inkor etmaydi, balki uni to‘ldiradi.

Tarixiy rivojlanish. Prinsipning ildizlari urush qonun va odatlariga borib taqaladi: 1474-yilda Peter fon Hagenbax Breyzax shahrida o‘z qo‘shinlari sodir etgan zo‘ravonliklar uchun maxsus sud tomonidan mahkum etilgan va bu hodisa qo‘mondonlik javobgarligining dastlabki misollaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Biroq uzoq vaqt xalqaro huquq davlat suvereniteti g‘oyasiga tayangan. Birinchi jahon urushidan so‘ng 1919-yilgi Versal shartnomasining 227-moddasida Germaniya imperatori Vilgelm II ni ayblash nazarda tutildi, ammo bu norma amalda qo‘llanilmadi. Eng muhim bosqich Nyurnberg sud jarayoni (1945–1946) bo‘ldi: 1945-yil 8-avgustda London bitimi bilan tasdiqlangan Xalqaro harbiy tribunal Nizomi asosiy natsist rahbarlarini sudlash imkonini berdi,[3] xuddi shunday tamoyillar Tokio tribunalida (1946–1948) ham qo‘llanildi.[4] 1946-yil 11-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 95-I-sonli rezolyutsiyasi bilan Nyurnberg prinsiplarini tasdiqladi; birinchi prinsipga ko‘ra, xalqaro huquq bo‘yicha jinoyat hisoblangan qilmishni sodir

[2] Umarxonova D.Sh., Ochilov X.R. Xalqaro jinoyat huquqi: Darslik / Mas’ul muharrir y.f.d. B.I. Ismailov. — T.: TDYU, 2019. — 24–25-betlar. https://library-tsul.uz/category/xalqaro-jinoyat-huquqi/

[3] Xalqaro harbiy tribunal Nizomi (Evropa o‘qi mamlakatlarining asosiy urush jinoyatchilarini sudlash va jazolash to‘g‘risida London bitimiga ilova, 1945-yil 8-avgust), 6–8-moddalar. https://avalon.law.yale.edu/imt/imtconst.asp

[4] Xalqaro harbiy tribunal Nizomi (Tokio), 1946-yil 19-yanvar. https://www.jus.uio.no/english/services/library/treaties/04/4-06/military-tribunal-far-east.xml

etgan har qanday shaxs javobgar bo‘ladi va jazolanishi lozim.[5] Sovuq urush tugagach, sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun tribunallar tuzildi, ularning Nizomlarida individual javobgarlik alohida moddada belgilandi.[6] 1998-yilda qabul qilingan va 2002-yil 1-iyulda kuchga kirgan Rim Statuti asosida doimiy Xalqaro jinoyat sudi tashkil etildi.

Huquqiy asoslar va javobgarlik shakllari. Javobgarlik asoslari normativ (qilmishni jinoyat deb belgilovchi xalqaro-huquqiy norma) va faktik (jinoyat tarkibi unsurlarining mavjudligi) asoslarga bo‘linadi. Normativ asoslar: 1948-yilgi Genotsid konvensiyasi (IV-modda),[7] 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari (urush jinoyatlari uchun shaxslarni izlash, o‘z sudiga tortish yoki topshirish majburiyati), 1984-yilgi Qiynoqqa solishga qarshi Konvensiya[8] hamda eng keng qamrovli norma, Rim Statutining 25-moddasi. Unga ko‘ra Sud jismoniy shaxslar ustidan yurisdiksiyaga ega, jinoyat sodir etgan shaxs individual tartibda javobgar bo‘ladi va bu davlatlarning javobgarligiga ta’sir qilmaydi. Sud yurisdiksiyasiga kiruvchi jinoyatlar 5-moddada sanab o‘tilgan, bular genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari, tajovuz. Javobgarlikda Statutning III qismidagi prinsiplar - nullum crimen sine lege (22-modda), nulla poena sine lege (23-modda), qonunning orqaga qaytmasligi (24-modda), ayb (30-modda), shuningdek ne bis in idem va komplementarlik muhim. ICC milliy sudlarni almashtirmaydi va ular jinoyatni tergov qilishga istak yoki qobiliyat ko‘rsatmagan hollardagina yurisdiksiyani amalga oshiradi.

Xalqaro jinoyatlar murakkab tuzilma doirasida ko‘p odamlarning ishtirokida sodir etilgani uchun Rim Statutining 25-moddasi 3-qismi javobgarlikning bir necha shaklini belgilaydi: jinoyatni o‘zi, birgalikda yoki boshqa shaxs orqali sodir etish, buyruq berish, undash yoki ko‘ndirish, yordam berish, umumiy maqsad bilan harakat qiluvchi guruhning jinoyatiga hissa qo‘shish, genotsidga bevosita va ommaviy undash, suiqasd. Alohida shakl 28-moddadagi qo‘mondonlik javobgarligi: harbiy qo‘mondon o‘ziga bo‘ysunuvchilar sodir etgan jinoyatlar uchun, agar ularni bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan va oldini olish yoxud to‘xtatish uchun zarur choralarni ko‘rmagan bo‘lsa, javob beradi. Tribunallar amaliyotida “birgalikdagi jinoiy korxona” doktrinasi ham shakllandi. ICTYning Tadich ishi bo‘yicha 1999-yilgi qarorda umumiy jinoiy

[5] BMT Bosh Assambleyasining 1946-yil 11-dekabrdagi 95-I-sonli rezolyutsiyasi; BMT Xalqaro huquq komissiyasi, Nyurnberg tribunali Nizomi va hukmida e’tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari (1950), I-prinsip. https://digitallibrary.un.org/record/209872; https://hrlibrary.umn.edu/instree/1950a.htm

[6] Sobiq Yugoslaviya uchun Xalqaro jinoyat tribunali Nizomi, 7-modda (BMT XK 827(1993)-sonli rezolyutsiyasi); Ruanda uchun Xalqaro jinoyat tribunali Nizomi, 6-modda (BMT XK 955(1994)-sonli rezolyutsiyasi). https://hrlibrary.umn.edu/icty/statute.html; https://hrlibrary.umn.edu/peace/docs/scres955.html

[7] Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risidagi Konvensiya (1948-yil 9-dekabr), IV-modda. https://legal.un.org/avl/HA/cppcg/cppcg.html

[8] Qiynoqqa solishga va muomala hamda jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya (1984-yil 10-dekabr), 4–7-moddalar. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-against-torture-and-other-cruel-inhuman-or-degrading

maqsad uchun birgalikda harakat qilgan guruh a'zolari, agar jinoyat umumiy reja doirasiga kirsa, javobgar bo'lishi belgilangan,[9] biroq doktrina ilmiy tanqidga ham sabab bo'lmoqda.[10]

Milliy qonunchilik va xalqaro standartlar. Komplementarlik prinsipiga ko'ra, jinoyatlarni birinchi navbatda milliy sudlar tergov qilishi kutiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasida jinoiy javobgarlik faqat aybdor deb topilgan shaxsning o'zigagina yuklanishi belgilangan, 1-moddasida esa jinoyat to'g'risidagi qonunchilik Konstitutsiya va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalariga asoslanishi ko'rsatilgan.[11] Maxsus qism VIII bobi urushni targ'ib qilish, agressiya, urush qonun va udumlarini buzish, genotsid, yollanish va terrorizm uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Ishtirokchilik institutida tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi bajaruvchi kabi javobgar bo'ladi, bu esa Statutning 25-moddasi 3-qismidagi shakllarga mazmunan yaqin. Biroq Kodeks insoniyatga qarshi jinoyatlarni alohida jinoyat tarkibi sifatida aks ettirmaydi va Statutdagi shakllar bilan to'liq mos kelmaydi, shu sababli qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Real ishlar asosida tahlil

Case 1: Nyurnberg tribunali (1945–1946). Ayblov 24 nafar shaxsga qo'yilgan, 22 nafari sudlangan, 19 nafari aybdor deb topilgan, 3 nafari oqlangan, 12 nafari o'lim jazosiga hukm qilingan. Ish mansab va davlat nomidan harakat qilish javobgarlikdan ozod qilmasligini ko'rsatdi.

Case 2: ICC - Lubanga ishi (2012). Birinchi sud palatasi 2012-yil 14-martda Tomas Lubanga Dyilo ni 15 yoshga to'lmagan bolalarni qurolli kuchlarga majburan yollash va jangovar harakatlarda foydalanishda aybdor deb topdi, javobgarlik 25-moddaning 3-qismi (a) bandi - birgalikda sodir etish asosida belgilandi.

Case 3: ICC - Bemba ishi. Jan-Per Bemba 2016-yilda 28-modda bo'yicha qo'mondonlik javobgarligi asosida aybdor deb topildi, biroq 2018-yil 8-iyunda Apellyatsiya palatasi uni oqladi.

Xulosa va takliflar

Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyatlar uchun jinoiy javobgarligi xalqaro jinoyat huquqining eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib, Nyurnberg va Tokio tribunallaridan ICTY, ICTR va doimiy Xalqaro jinoyat sudigacha uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tdi. Shaxs mansabi, fuqaroligi yoki yuqoridan olgan buyrug'iga ishora qilib javobgarlikdan qutula olmaydi. Javobgarlikning asoslari Genotsid konvensiyasi, Jeneva konvensiyalari, Rim Statuti va odat normalarida mustahkamlangan; shakllari bevosita sodir etish, buyruq berish, yordam ko'rsatish, birgalikdagi jinoiy korxona va qo'mondonlik javobgarligini qamrab oladi. O'zbekiston Jinoyat kodeksida tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan, biroq prinsipni qo'llash yurisdiksiya doirasining cheklanganligi, davlatlar hamkorligiga bog'liqlik va siyosiy omillar sababli murakkabligicha qolmoqda.

[9] Prosecutor v. Duško Tadić, IT-94-1-A, Appeals Chamber, 1999-yil 15-iyul qarori. https://icty.org/x/cases/tadic/acjug/en/tad-aj990715e.pdf

[10] Schabas W. The International Criminal Court: A Commentary on the Rome Statute. — Oxford University Press. https://academic.oup.com/book/57464

[11] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabr), 1-modda. https://lex.uz/docs/-111453

Natijalarga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismiga insoniyatga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni alohida jinoyat tarkibi sifatida nazarda tutuvchi norma kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, Rim Statutining 28-moddasiga muvofiq yuqori turuvchi shaxslarning o‘ziga bo‘ysunuvchilar sodir etgan xalqaro jinoyatlar uchun javobgarligini belgilovchi qoidani mustahkamlash lozim. Uchinchidan, ishtirokchilikka oid normalarni Statutning 25-moddasi 3-qismidagi shakllar bilan uyg‘unlashtirish, komplementarlik prinsipi doirasida milliy sudlarning roli va davlatlararo hamkorlik tartibini aniqlashtirish zarur.

Foydalanilgan manbalar

Adabiyotlar:

1. Umarxonova D.Sh., Ochilov X.R. Xalqaro jinoyat huquqi: Darslik / Mas’ul muharrir y.f.d. B.I. Ismailov. — T.: TDYU, 2019. https://library-tsul.uz/category/xalqaro-jinoyat-huquqi/
2. Cassese A. International Criminal Law. — Oxford University Press. http://www.loc.gov/catdir/toc/fy14pdf03/2012540730.html
3. Schabas W. The International Criminal Court: A Commentary on the Rome Statute. — Oxford University Press. https://academic.oup.com/book/57464
4. **Huquqiy hujjatlar:**
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabr). https://lex.uz/docs/-111453
6. Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risidagi Konvensiya (1948-yil 9-dekabr). https://legal.un.org/avl/HA/cppcg/cppcg.html
7. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va 1977-yilgi Qo‘shimcha protokollar. https://www.icrc.org/en/war-and-law/treaties-customary-law/geneva-conventions
8. Qiynoqqa solishga va muomala hamda jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya (1984-yil 10-dekabr). https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-against-torture-and-other-cruel-inhuman-or-degrading
9. Sobiq Yugoslaviya uchun Xalqaro jinoyat tribunali Nizomi (BMT XK 827(1993)-sonli rezolyutsiyasi). https://hrlibrary.umn.edu/icty/statute.html
10. Ruanda uchun Xalqaro jinoyat tribunali Nizomi (BMT XK 955(1994)-sonli rezolyutsiyasi). https://hrlibrary.umn.edu/peace/docs/scres955.html
11. Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti (1998-yil 17-iyul). https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/Publications/Rome-Statute.pdf
12. BMT Xalqaro Sudi Statuti. https://www.icj-cij.org/en/statute
13. Xalqaro harbiy tribunal Nizomi (Evropa o‘qi mamlakatlarining asosiy urush jinoyatchilarini sudlash va jazolash to‘g‘risida London bitimiga ilova, 1945-yil 8-avgust). https://avalon.law.yale.edu/imt/imtconst.asp
14. Xalqaro harbiy tribunal Nizomi (Tokio), 1946-yil 19-yanvar. https://www.jus.uio.no/english/services/library/treaties/04/4-06/military-tribunal-far-east.xml
15. BMT Bosh Assambleyasining 1946-yil 11-dekabrdagi 95-I-sonli rezolyutsiyasi. https://digitallibrary.un.org/record/209872
16. BMT Xalqaro huquq komissiyasi, Nyurnberg tribunali Nizomi va hukmida e’tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari (1950). https://hrlibrary.umn.edu/instree/1950a.htm

17. **Sud ishlari:**
18. Prosecutor v. Duško Tadić, IT-94-1-A, Appeals Chamber, 1999-yil 15-iyul qarori. https://icty.org/x/cases/tadic/acjug/en/tad-aj990715e.pdf